



SANCHO PANSA – XALQ DONOLIGI VA HAQIQIY SODIQLIK TIMSOLI. (SERVANTESNING “DON KIXOT” ASARI ASOSIDA)

Muborak O'rozova

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Muborakorozova2005@gamil.com

Ilmiy rahbar: Xurriyat Xudoymurodova

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya: Mazkur maqolada voqelikka realist yozuvchi sifatida yondashib, insonparvarlik g'oyalarini tarannum etgan Servantesning zamonaviy g'arb adabiyoti shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan “Don Kixot” romanidagi xalq donoligi va amaliy tafakkurining timsoli bo'lmish Sancho Pansa obrazining asardagi tutgan o'rni hamda ahamiyati tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Servantes, “Don Kixot” romani, xalq og'zaki ijodi, ritsarlik, uyg'onish davri, avantyurizm va idealistik dunyoqarash.

Abstract: In this article, the role and significance of Sancho Panza—a symbol of folk wisdom and practical thinking—in Cervantes' novel Don Quixote, which had a great influence on the formation of modern Western literature, are analyzed. The novel reflects Cervantes' realistic approach to reality and his promotion of humanistic ideals.

Keywords: Cervantes, “Don Quixote” novel, folklore, chivalry, renaissance, adventurism and idealistic worldview.

Ispaniyaga uyg'onish davri Servantesning “Don Kixot” dohiyona romani bilan kirib keldi. “Don Kixot” romanining yaratilishi ispan madaniy hayotida juda katta voqea bo'ldi. Asarning muqaddimasida Servantes “ritsar romanlarini sidirg'asiga fosh



etish” va ularning “qulay deb turgan istehkomini ag’darish”ni asosiy g’oyaviy maqsad qilib oladi.¹ Buning uchun muallif yashashni bilmaydigan, mavjud shart-sharoitni tan olishni istamaydigan telba qiyofadagi don Kixot obrazidan foydalanadi. Servantes romanida telba xayolparast bilan birga hushyor va ishchan Sancho Panso ham harakat qiladi. Ammo ikkalasi bir-birining qiyofasidir, ya’ni Don Kixot ritsarlikka aloqador bo’lmagan hamma narsalar haqida anchagina aqllilik va donishmandlik ko’rsatganidek, Sancho ham moddiylikdan tashqaridagi narsalarga nisbatan hushyorligi va farosatliligi bilan ajralib turadi. Idealistik dunyoqarash egasi hisoblangan Don Kixot ritsarlik romanlarining xayoliy dovdirashlariga qarshi turolmaganidek, mehnatkash dehqon Sancho ham osongina boylik orttirish kasaliga, ya’ni avantyurizmga duchor bo’ladi. Asarda ikkalasini birlashtirib turgan yagona narsa ham faqat shudir. Asar voqealaridan bilib boramizki, shon-shuhrat va ritsarlik jasoratlariga haddan ziyod berilib ketish Don Kixotning ko’zini ko’r, qulog’ini kar qilib qo’yadi. Biz buni dalaning o’rtasida qaqqayib turgan shamol tegirmonlarini Don Kixot devlar deb o’ylashi, yo’ldagi rohiblarni qirolichani o’g’irlab ketayotgan yovuz niyatli sehrGAR deb, ularga hujum qilishi, karvonsaroyni sehrlangan qal’aga o’xshatishi, qo’ylar galasini lashkar deb, ularga nayza sanchishi, yarim tunda murda olib ketayotganlarni arvohga o’xshatishi, qamoqxonaga olib ketilayotgan jinoyatchilarni zo’rlanganlar deb hisoblab, ularni qo’yib yuborishi kabi jarayonlarda ko’rishimiz mumkin. Bularning hammasi ko’z qo’yaman deb, qosh chiqarishga o’xshaydi. Bular bilan Servantes real hayotdan orqada qolish nimalarga olib kelishini qattiq kinoya bilan ifodalaydi. Don Kixot aslida o’ta oliyjanob, haqiqat va adolatga jon-dilidan berilgan ajoyib kishi bo’lsa-da, qahramonliklari o’zi uchun ham, boshqalar uchun ham faqat ko’ngilsizlik olib keladi.

E’tibor beradigan bo’lsak, Sancho obrazi ham asarda alohida ahamiyat kasb etgan. Sancho obrazisiz Don Kixot obrazi orqali ifodalanmoqchi bo’lgan g’oya

¹ U.Hamdamiyov, A.Qosimov. Jahon adabiyoti.Toshkent – 2017.118b.



o'quvchilarga mukammal holda yetkazilishi mushkil bo'lib qoladi. Sancho har safar Don Kixotga yo'li noto'g'ri ekanligini uqtirmoqchi bo'ladi, ammo baribir Don Kixot o'z fikridan qaytmaydi. Natijada har ikkisi nafaqat odamlar oldida kalaka bo'ladi, balki jismoniy zarar ham ko'radi. Sancho obrazida odamgarchilik yuksak darajada aks ettirilgan. Negaki u Don Kixot bilan birga qilgan safari g'irt bema'nilik ekanini va oxiri yaxshilikka olib kelmasligini bilsa-da, lekin uni yolg'iz tashlab ketmaydi. Bunga sabab Sanchoning sadoqati, u o'z xo'jayiniga nisbatan chuqur sadoqat va do'stlik hissini saqlaydi. Uni yolg'iz qoldirishni istamay, hamisha yonida bo'ladi garchi xo'jayinining xatti-harakati unga zarar keltirsa-da. "...Agarda men dono, farosatli odam bo'lganimda o'z xo'jayinimni allaqachonlar tashlab ketgan bo'lardim. Ammo mening achchiq qismatim shunda: har qancha urinmayin uni tashlab ketolmayman, biz u bilan bir qishloqdanmiz, uning tuzini totdim, uni yaxshi ko'raman, xo'jayinim buni biladi, u menga o'z xo'tiklarini taqdim qildi, eng muhimi men sodiq odamman, shuning uchun bizni go'rgina ajrata oladi..."² Sancho tilidan aytilgan ushbu gaplar fikrimizning naqadar to'g'ri ekanligini asoslab beradi. Ammo boshqa tomondan yana bir sabab bor. Bu - Sanchoning pulga, mol-dunyoga o'chligi. Xo'jayinining o'y-fikrlari ahmoqona ekanligini bilsa-da, xo'jayini va'da bergan orolga erishish tuyg'usi Don Kixotning mashhur bo'lib ketishishiga ishonishga Sanchoni majbur qiladi. Shu sababli ham Sancho xo'jayinidan uzoqlasholmaydi.

Shuningdek, Sanchoda asar voqealari davomida yuksak salohiyat, donolik va hayotiy tajriba borligi ham ko'zga tashlanadi va Sancho o'sha davr xalq donishmandligining buyuk timsoli sifatida gavdalangan. Asarda u oddiy xalq vakili bo'lishiga qaramay xalq og'zaki ijodi hisoblanmish maqollardan atroflicha foydalanadi va hayotiy tajribaga asoslangan fikrlar bildiradi. Aslida maqol nima? "Maqol so'zi arab tilidan olingan bo'lib, "so'z" degan ma'noni bildiradi. Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko'rgan-kechirganlari asosida yuzaga kelgan xulosadir. Maqol

² Migel De Servantes. "Don Kixotning sarguzashtlari". "Ilm-ziyo zakovat". Toshkent - 2019. 431b



ibratli so'zdir. Shunday so'zki, gapga husn beradi, fikrni tushunib olishni osonlashtiradi, uni yorqin, ta'sirchan qiladi. Shuning uchun ham maqol odamlar nutqida har doim hamroh bo'ladi. Kimki undan ko'p ishlatsa, o'shaning nutqini shirali deydilar va diqqat bilan eshitadilar".³ Shuning uchun ham har bir gapida bir ma'no, hayotiy hikmat mujassam bo'lib, bu uning shaxsiyatini yanada boyitadi. Buni asar qahramoni tilidan aytilgan quyidagi gapdan anglashimiz mumkin: "...Davlatni boshqarishda menga birgina xudoning o'zi yordam berishi mumkin, chunki mening kallamda kitoblardagidan ham ko'proq maqol bor. Gap boshladimmi, tamom, hammasi birdaniga tilimga yopirilib kelaveradi..."⁴ Endi fikrimiz isboti sifatida asarda Sancho tilidan aytilgan maqollar va hikmatli so'zlar ularning qanday vaziyatga nisbatan qo'llanilganini sharhlaymiz:

1. Gersog saroyida izza bo'lgan Sancho ularga boyligi savol-javob vaqtida hech qanday yordam berolmasligini hamda kambag'al va boy bu dunyoda bo'lmasa-da, u dunyoda teng ekanligini ushbu maqollar bilan eslatib o'tmoqchi bo'ladi: "Biz bu dunyodan safar qilar ekanmiz, shoh ham, gado ham bitta so'qmoqdan o'tishadi; papa so'fidan qancha aziz bo'lmasin ikkalasi uchun ham ikki gaz yer yetadi, xolos. Uyquga ketganimizda hammamiz ham: aslzodalar ham, fuqaro ham, boylar ham, kambag'allar ham tengmiz."

2. "Chumoliga ham qanot bitar", -bu ispan xalq maqoli hisoblanib, o'zimizda "Kunning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'u" xalq maqoliga to'g'ri keladi. Bu maqol orqali boy bo'lishda baxti kulmagan Sancho baxt qushini kutishdan umidni uzmaslikka o'zini da'vat etmoqda.

3. "Insofli to'lovchiga hech qanday garov qo'rqinchli emas". Bu maqol o'ziga berilgan orolni qonun- qoidaga amal qilgan holda boshqarishga ahd qilganda gersog ishonmagan vaqtda Sancho tomonidan aytilgan.

³ S. Ahmedov. B. qosimov va boshqalar. 5-sinf adabiyoti. "Sharq". Toshkent. – 2020.9-10b

⁴ Migel De Servantes. "Don Kixotning sarguzashtlari". "Ilm-ziyo zakovat". Toshkent - 2019. 479b



4. “O’g’zi qiyshiq bo’lsa ham boyning o’g’li gapirsin”, “Borniki farmon bilan, yo’qniki armon bilan” maqollari Sancho yashagan joydagi siyosiy ahvoldan darak bermoqda, ya’ni insonlar tabaqalashib ketgan. Boy insonlar nima xohlasa, bitta buyruq bilan o’z maqsadiga yetadi, ammo kambag’allar esa hamisha o’z orzulari yo’lida yetisholmay armon bilan qolib ketishini ko’rsatmoqda.

5. “Barmog’ingni aql tishi ostiga suqma” maqoli esa gubernator yo boshqa amaldorlar bilan bahslashib o’tirish befoyda ekanligidan darak beradi.

6. Mabodo gubernatorlik uchun shayton meni do’zaxga ro’para qiladi deb qo’rqsangiz, unda Sancholigimcha qolib jannatga tushganim tuzuk. Bundan a’yon bo’ladiki, Sancho o’z nafsini jilovlashga harakat qiladi va jannatga kirishni xohlaydi. Lekin sir emaski, gubernator bo’lsa, berilgan umrini yegani oldida, yemagani ketida bo’lib, barcha istaklariga erishib, muhimi muhtojlik ko’rmay o’tkazadi. Sanchoning Jannat uchun bularning baridan voz kechishi uning qalbi pok ekanligidan xabar beradi.

Shuningdek, Sancho voqealar davomida vaziyatga qarab , Yugurganniki emas, buyurganniki , Yurgan yo’lingdan qolma. Suymaganga suykalma. Xurmachani toshga urasanmi, toshni xurmachaga - baribir. Yaxshilik qilish yomonlik qilishdan ko’ra hamma vaqt ko’proq maqtovgga loyiqdir. Teng tengi bilan, tezak qopi bilan. Ko’rpangga qarab oyoq uzat. Uyning gapi ko’chaga to’g’ri kelmaydi - kishining avzoyi doim bir xil bo’lavermaydi. Shirin so’z bilan davlating kamaymaydi. Chuchvarani xom sanamay qo’yavering. Sigir hadya qilishdimi darrov arqonga chop. Kishi qayerda bo’lmasin o’z ehtiyoji haqida gapiradi kabi maqollardan va ibratli fikrlardan juda ko’p foydalanadi. Yuqoridagi sharhlangan maqollardan ko’rdikki, ularning hech biri asossiz keltirilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, Sancho Pansa obrazi “Don Kixot” romanining mana shu darajada mashhur bo’lishida asosiy vazifalardan birini bajargan. Ko’rib o’tilganidek, Sancho Pansa - oddiy dehqon, ammo uning so’zlari va harakatlarida donishmandlik mujassam. U Don Kixotning orzulari bilan yashamadi, lekin uni tark ham etmadi. U



ritsarlik haiqdagi xayollarga ishonmadi, lekin sodiqlikni o'z hayoti tamoyiliga aylantirdi. U hazil-mutoiba bilan gapirdi, lekin gaplari hayot haqiqatlari bilan sug'orilgan edi. Asarda Don Kixot ritsarlikka berilib ketgan so'nggi obraz sifatida gavdalanirilgan bo'lsa, Sancho Pansa esa xalq donoligi va sadoqatining mangu timsoli sifatida tasvirlangan. Sancho Pansa bizga shuni o'rgatadi: haqiqat faqat kuchli va oliyjanob odamlarning mulki emas. Ba'zan eng oddiy insonlar eng chuqur haqiqatlarni anglab yeta olishi mumkin. Demak, Sancho - hayotning har qanday zarbasiga oddiy, ammo oqilona javob bera oladigan qahramon sifatida barcha kitobxonlar qalbidan joy ololadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Migel De Servantes. "Don Kixotning sarguzashtlari". "Ilm-ziyo zakovat". Toshkent - 2019.431- 479b
2. U.Hamdamiyov , A.Qosimov. Jahon adabiyoti.Toshkent – 2017.118b
- 3.S.Ahmedov. B.qosimov va boshqalar. 5-sinf adabiyoti. "Sharq".Toshkent. – 2020.9-10b